



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



IN SPECIFIC INFLUENCE OF EAST DEVONIAN TRADITION ON GOETHE'S WORKS

Otabek Joraboyev,

Associate Professor, Doctor of Philological Sciences, Deputy director of
the State Literature Museum named after Alisher Navoi,
(Tashkent, Uzbekistan)

Abstract: In this article, Johann Wolfgang Goethe's work "West-östlicher Divan" is included in the scope of analysis. The author's attempt to create a work modeled on the Eastern classical sofa is discussed, as well as some differences and peculiarities in this regard. Considerations are presented in comparison with the sofas of Alisher Navoi.

Keywords: Goethe, West-östlicher Divan, Navoi, classical sofa, tradition, text.

SHARQ DEVONCHILIK AN'ANASINING GYOTE IJODIGA TA'SIRI XUSUSIDA

Otabek Jo'raboyev,

Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktor o'rinbosari,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
(Toshkent, Ozbekiston)

Annotatsiya: Maqolada Yohann Wolfgang Gyotening “G‘arbu Sharq devoni” asari tahlil doirasiga tortilgan. Sharq mumtoz devonchilik andozalari asosida muallifning asar yaratishga harakat qilgani va bu boradagi ayrim farqlar hamda o‘ziga xosliklar borasida so‘z boradi. Alisher Navoiyning devonlari bilan solishtirilgan holda mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Gyote, G‘arbu Sharq devoni, Navoiy, mumtoz devon, an‘ana, matn.

Аннотация: В статье в сферу анализа включено произведение Йоганна Вольфганга Гете «Западно-Восточный диван». Обсуждается попытка автора создать произведение по образцам восточного классического дивана, а также некоторые отличия и особенности в этом отношении. Представлены соображения в сравнении с диванами Алишера Навои.

Ключевые слова: Гете, Западно-Восточный диван, Навои, классический диван, традиция, текст.

Abstract: In this article, Johann Wolfgang Goethe's work " West-östlicher Divan" is included in the scope of analysis. The author's attempt to create a work modeled on the Eastern classical sofa is discussed, as well as some differences and peculiarities in this regard. Considerations are presented in comparison with the sofas of Alisher Navoi.

Keywords: Goethe, West-östlicher Divan, Navoi, classical sofa, tradition, text.

Sharq uzoq yillar G‘arb olamini o‘ziga shaydo qilib kelgan. Hozir ham bu jihat davom etmoqda, desak mubolag‘a emas. Qadimda ko‘plab ovrupolik sayyoh, adib va shoirlar ko‘hna Sharq va uning go‘zalliklarini o‘z asarlarida vasf etishgan.

XIX asrda mashhur olmon shoiri Yohann Wolfgang Gyote (1749-1832) ayni Sharq mavzusini o‘zgacha talqinda taqdim etdiki, to hanuz bu jahon adabiyotidagi jozibador va qamrovli asar sifatida qiymatga egadir. Mazkur asar “West-östlicher Divan” (“G‘arbu Sharq devoni”) bo‘lib, uni muallif 1819 yilda e‘lon qilgan. Ushbu asar e‘lon qilingunga qadar ham Ovrupa adabiyotida allaqachonoq orientalizm (Sharqni o‘rganish) yo‘nalishi shakllanib ulgurgan edi.

Biroz tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida Ovrupa adabiyotida filooriyentalistika oqimi vujudga kelib ulgurgan edi. Sharqshunos I.Braginskiyning ta’kidlashicha ovrupalik yozuvchi, adib va shoirlar hindlar, siamlar, turklar, arablar va boshqa xalqlarning axloqiy qiyofalarini gumanistik nuqtai nazaridan yoritishar edi. Hatto, XVII asrda yashagan frantsuz tujjori va sayohatchisi Tavenne butun Sharq olamini ko‘zda tutgan holda “Forsning Ovrupaga hasad qiladigan joyi yo‘q”, degan edi. Yoki, Volterning sharqona dramaturgiyasi va Monteskening “Fors maktublari” filooriyentalizmning cho‘qqisi sifatida tan olinardi.

Biroq Gyotegacha bo‘lgan Ovrupa adabiyoti o‘z sharqona niqobi, she’riyatdagi sharqona syujetlari, obrazlari, personajlari, ya’ni Sharq belgilarini u yoki bu darajada aks ettirishga harakat qilgandi. Gyote esa Sharq va G‘arb deb atalmish ikki madaniyat yutuqlarini o‘z asarida indiviual poetik tarzda ifoda eta oldi.

“G‘arbu Sharq” devoni o‘n ikki qism (kitob), aniqroq qilib aytganda, o‘n ikki nomadan iborat. Ular:

1. Mug‘anniynoma
2. Hofiznoma
3. Ishqnoma
4. Tafkirmoma
5. Ranjnoma
6. Hikmatnoma
7. Temurnoma
8. Zulayhonoma
9. Soqiynoma
10. Masalnoma
11. Forsiynoma
12. Xuldnoma

O‘z navbatida ushbu nomalar, ya’ni kitoblar bir necha she’rlar jamlanmasidan iborat. Masalan, “Mug‘anniynoma” 18 she’rdan, “Ishqnoma” esa 16 she’rdan iborat. “Hikmatnoma” 55 she’rdan iborat bo‘lsa, “Temurnoma” 2 she’rdan tashkil topgan.

Umuman olganda, shoir o‘z to‘plamiga tartib berar ekan tizimli ravishdagi bir xillikka e‘tibor qilmaydi. Ma‘no-mazmun va mavzular qamrovini asosiy o‘ringa qo‘yadi.

To‘g‘ri, Sharq mumtoz adabiyotida devon (ya‘ni, she‘rlar to‘plami) anchayin murakkab va shoirdan katta talant va bilimni talab qiladi. Chunonchi, arab mumtoz adabiyoti, fors mumtoz adabiyoti va turkiy tildagi mumtoz adabiyotning eng peshqadam vakillari aynan devon tuzishning mukammal namunalarini taqdim etib ketganlar. Misol uchun, Muslihiddin Sa‘diy Sheroziy, Hoqoniy, Xisrav Dehlaviy, Shamsiddin Muhammad Hofiz Sheroziy, Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning bu boradagi asarlarini eslab o‘tish kifoya. Fikrimiz isboti uchun, Amir Alisher Navoiy hazratlarining “Badoye‘-ul-bidoya”, “Navodir-un-nihoya” devonlari va “Xazoyin-ul-maoniy” tarkibidagi to‘rt muhtasham devoni (“G‘aroyib-us-sig‘ar”, “Navodir-ush-shavob”, Badoye‘-ul-vasat”, “Favoid-ul-kibar”) Sharq mumtoz devonchiligining eng yorqin va eng muhtasham namunalaridan hisoblanadi.

Demak, Sharq devonchilik an‘anasida shakllangan va qat‘iy qolipga tushgan bir necha unsurlar aynan devon tuzishda aks etishi zarur edi. Jumladan, devonlar tarkibiga kiruvchi she‘rlar arab alifbosi tartibiga muvofiq joylashtirilishi, janrlar ketma-ketligiga rioya etilishi, she‘rlardagi qofiya va radiflar tuzilish tizimini buzmasligi va eng muhimi Sharq mumtoz adabiyotida qat‘iylashgan tarzda g‘oyaviy tematik mazmun aks ettirilishi lozim edi. Inchunun, Navoiy davri va keyingi asrlar devonchilik an‘anasida she‘rlar hamd, munojot, na‘t va boshqa lirik hamda ijtimoiy mazmundagi asarlar ketma-ketligida berilgan.

Biz Gyotening “G‘arbu Sharq devoni”da aynan yuqoridagi jihatlarni ko‘rmaymiz. Albatta, Gyote olmon (G‘arb) shoiri sifatida Sharq mumtoz she‘riyatida qat‘iy an‘ana bo‘lgan aruz tizimiga amal qilish va mumtoz lirik janrlarni qo‘llash kabi jihatlarni o‘z asarida aks ettirmagan. Lekin Sharq she‘riyatiga xos bo‘lgan mohiyat va mazmuni shoir o‘z devoni tarkibiga kiruvchi she‘rlarda ifoda eta olganligiga guvoh bo‘lamiz.

Ovrupalik o‘quvchi Gyote devoni bilan tanishar ekan, uning mazmuni g‘arbona, shakli esa sharqona, deya hukm chiqarishi mumkin. Aslida esa unday

emas. “G‘arbu Sharq devoni”ning shaklida qanchalik sharqonalik aks etgan bo‘lsa, shunchalik g‘arboonalik ham namoyon bo‘lgan. Aytaylik, she'r tizimi, olmon xalq qo‘shiqlarining ohangi, G‘arb, aniqroq qilib aytganda, antik davr mifologiyasining ayrim obrazlarini ham ko‘zga tashlanadi.

Devondagi o‘n ikki noma-kitob esa Gyote tomonidan aynan Sharq badiiy tafakkuridagi, xususan, mumtoz devonlardagi timsollar, obrazlar va fikriy qarashlar bilan ham qurollangan.

Misol uchun, dastlabki kitob – “Mug‘anniynoma” hijrat deya nomlangan she'r bilan boshlanadi. Ma'lumki, hazrati Muhammad (s.a.v) Makkadan Madinaga hijrat qilganlar. Gyote ham ayni mana shu voqeani devondagi ilk she'rga motiv sifatida tanlab oladi. Bunga sabab qilib gyoteshunoslar asar yozilayotgan davrda Napoleon boshchiligidagi ko‘plab urushlardan charchagan va biqiq muhitga tushib qolgan Ovrupadan shoir ketmoqchi bo‘lganligiga ishora, deya ta'kidlashadi.

Shu bilan birga, ayni mana shu kirish qismidagi she'rlarda Sharq mumtoz adabiyotida mashhur bo‘lgan masnaviy janrining qolipini va qofiyalanish tartibini (a-a, b-b, v-v...) olishga harakat qilgan va bir qancha jihatdan bunga muvaffaq bo‘la olgan ham:

Taxtlar qulab ne tajjub,

Xarob Shimol, Mag‘rib, Janub

Sharqqa hijrat erur vojib,

Unda ishqu mayu mutrib,

Hamda Xizr suvi bordir,

Boqiy umr senga yordir... (S.S.Buxoriy tarjimasini)

Aynan shu birinchi “Hijrat” deya nomlangan she'r tahlili bizga Sharq poeziyasining shakli asosan uch spetsifik obrazdan iborat ekanligiga ham ishora qiladi va ayni damda “G‘arbu Sharq devoni”ning g‘oyaviy mazmunini ham aks ettirayotgandek taassurot uyg‘otadi. Ular – 1) ulug‘ haqiqatni tashuvchi shoir obrazi; 2) abadiy tirik potik so‘z obrazi; 3) tinmay Idealga hizmat qiluvchi obrazi.

Shu tariqa birinchi kitob “Mug‘anniynoma” ilk she‘ridan oxiriga qadar sharqona ekzotik timsollarga, lavhalarga va hatto gilam va chodirlarga, alvon lolalari Sherozning qip-qizil atirgullariga to‘ladir.

Butun “G‘arbu Sharq devoni” davomida Hofiz Sheroziy she‘rlarining ta‘siri va shoirona qiyofasi aks etib turadi. Va bejizga shoir ikkinchi kitobini “Hofiznoma” deb atamagan. Dastlabki she‘ri “Taxallus” deya ataladi. Muallif savol qo‘yadi:

Ayo, Muhammad Shamsiddin,

Nechun eling Hofiz deb nom

qo‘ymish senga?

Hofizning nomidan esa o‘zi javob beradi, “Chunki Qur‘on oyatlarin bildim yoddan”. Shundan so‘ng butun noma davomida Hofizning poetik obrazini yaratishga harakat qilgan.

Umuman, ushbu devon davomida Sharq mumtoz devonlarida ko‘plab uchraydigan timsollarni muallif qayta-qayta tilga oladi. Misol uchun, “Ishqnoma”da “Rustam va Rudoba”, “Yusuf va Zulayho”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” “Jamil va Botina”, “Sulaymon va Bilqis” obrazlariga bot-bot murojaat qiladi. Chunki bu timsollar Sharq mumtoz adabiyotidagi mashhur oshiq-ma‘shuq obrazlaridir.

Shu bilan birga, “Temurnoma” kitobida “Sovuq va Temur” hamda “Zulayho” nomli ikki she‘rni kiritgan. Dastlabki she‘rda Sohibqiron Amir Temur obrazini suvuq shamol bilan qarama-qarshi qo‘yadi. Tarixdagi Amir Temur yurishlarini shiddatli sovuq shamolga o‘xshatadi. “Zulayho” nomli to‘rt bandli she‘rda esa juda yorqin, go‘zal tarzda lirik tasvirni beradi. Ammo uning oxirgi to‘rtinchi bandining so‘ngi misrasida ham Amir Temur qilichining ko‘plab o‘lkalarni fath etganligini ta‘kidlaydi.

Albatta bu o‘rinda muallif fors adabiyotidagi Amir Temurga bo‘lgan salbiy munosabatlarini aks ettirgan. Lekin mazmun mohiyatan e‘tibor berilsa, Gyote o‘z devonining aynan Sharq mumtoz adabiyoti va poetik timsollarini aks ettirishda real tarixiy shaxs Sohibqiron Amir Temur obrazini chetlab o‘ta olmagan.

Gyote keyinchalik “G‘arbu Sharq devoni”dagi mazmun mohiyatni yaqindan tushunishni ta‘min etadigan izoh va maqolalarni alohida yozib chiqqan. Bu izoh-maqolalarida shoir nafaqat Sharq mumtoz adabiyotini yaxshi o‘rgangan muallif, balki Sharq tarixining ham ma‘lum ma‘noda bilimdoni o‘laroq ko‘zga tashlanadi. Uning izohlari va kichik maqolalari go‘yoki devoniga kalit – ochqich vazifasini o‘taydiganday taassurot uyg‘otadi. Masalan, yahudiylar, arablar, qadimgi forslar, Muhammad, xalifalar, Mahmud G‘aznaviy, Firdavsiy, Anvari, Nizomiy, Jaloliddin Rumiy, Sa‘diy, Hofiz va Jomiy maqolalarida ushbu xalqlar va shoirlar haqida ma‘lumot berishga harakat qilgan.

Bir o‘rinda Gyote yozadi: “Juda ham aniqki, fors she‘riyati dramani bilmaydi. Agar o‘z vaqtida ularning ichida dramatik shoir paydo bo‘lganida edi, bu adabiyot butunlay boshqacha tus olgan bo‘lar edi. Bu millat osudalikka rag‘bat ko‘rsatadi. Ularga biron narsani gapirib berilsa, mana shu yerdan ko‘plab ertaklar va tunganmas dostonlar kelib chiqadi”.

Buning kabi o‘rinlarda muallif nafaqat Sharq mumtoz adabiyotiga, balki Sharq madaniyati va insonlariga ham e‘tiborli bo‘lganligini ilg‘ash mumkin.

Gyote tasvir etgan Sharq yangi davrga kirayotgan jamiyatni aks ettiruvchi, butun an‘ana va poetik timsollari bilan G‘arb kishisiga jozibador ko‘rinuvchi Sharq edi. Muallif o‘z devonida yangi davr Ovrupa devoni bilan zamondoshlariga mumtoz va kuhna Sharq adabiyotining go‘zal qiyofasini ko‘rsata oldi. “Devon” degan atamani ham G‘arb adabiyotida o‘z asariga qo‘ygan ilk ijodkor bo‘lib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, “G‘arbu Sharq devoni” o‘ziga xos murakkablikka va ayni damda yorqin sharqona ko‘rinishga ega asar xisoblanadi. Undagi lirik she‘rlar o‘n ikkita turkumga birlashtirilgan va ularga ilova tarzidagi kichik-kichik prozaik parchalar qo‘shilgan. Gyote Sharq mumtoz adabiyotidagi eng asosiy mavzu “Ishq”ni o‘z devoni leytmotiviga asos qilib oladi va bu bilan Sharq mumtoz adabiyotining asl mavzusini to‘g‘ri ilg‘ab, muhtasham asar yarata olganligini isbot etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иоганн Вольфганг Гёте. Западно-Восточный диван. Издание подготовили: И.С.Брагинский, А.В.Михайлов. -Москва: Наука, 1988.
2. Йоханн Вольфганг Гёте. Фарбу Шарқ девони. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.